

INTERYERDA RANG PSIXOLOGOYASI VA UNING TA'SIRI.

Abdullayeva Sevinchoy Tolqin qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy Rassomlik va Dizayn institute

Kasbiy ta'lim Interier loyihalash yo'nalishining

3-bosqich talabasi.

Annotasiya: *Ushbu maqolada bino va inshootlar interierlarida rang tushunchasi va uni qo'llash orqali inson psixologiyasiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy bino interierlarida uslubiy yechimlar materiallash tanlash ranglar orqali ifoda etish usullari tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается понятие цвета в интерьерах зданий и сооружений и его влияние на психологию человека через его применение. Стилиевые решения в интерьерах современных зданий материализация подбор методов выражения через цвета анализируются.*

Abstract: *This article examines the concept of color in the interiors of buildings and structures and its impact on human psychology through its application. Stylistic solutions in the interiors of modern buildings, materialization and selection of methods of expression through colors are analyzed.*

Kalit so'zlar: *xromatik, axromatik, monoxrom, issiq va sovuq ranglar, rang uygunligi, komplementar sxema, anologik sxema, kontrast-sxema, klassik uchlik-sxema, to'g'ri to'tburchaksimon sxema, kvadiratsimon sxema.*

Inson psixologiyasi bilan bog'liq ko'plab omillar kundalik hayotimizga, ish faoliyatimizga va ruhiy salomatligimizga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri – bu ranglardir. Ayniqsa, odamlar ko'p vaqtini o'tkazadigan ichki makon ya'ni interierdagi ranglar kombinatsiyasi, ularning ohangi va uyg'unligi inson ongiga sezilmas, ammo chuqur ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar, dizaynerlar va arxitektorlar o'rtasida bu mavzu dolzarb bo'lib, ranglar nafaqat estetik go'zallik uchun, balki ma'lum bir ruhiy holatni shakllantirish maqsadida ham qo'llanilmoqda.

Rang psixologiyasi bu insonlar ranglarga qanday munosabatda bo'lishi, ranglarning ong osti darajasida qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganuvchi psixologik yo'nalishdir. Bu fan sohasi XX asr boshlarida rivojlana boshlagan bo'lib, taniqli psixologlar K. Yung, F. Lusher va boshqalar bu borada chuqur tadqiqotlar olib borishgan. F. Lusher tomonidan ishlab chiqilgan rang testlari orqali insonning ruhiy holati, stress darajasi va kayfiyati aniqlanadi. Interierdagi ranglarning ta'siri: xonalar

kesimida tahlil qilinganda turar joy binosining yotoqxonasi – dam olish va tiklanish joyi bo'lganligi sababli, bu yerda sokin, pastel ranglar qabul qilish mumkin. Och ko'k, lavanda, och yashil yoki bej ranglar stressni kamaytiradi va uyquga tayyorlaydi. Juda yorqin ranglar (masalan, qizil) yotoqxonada bezovtalik uyg'otishi mumkin. Mehmonxona- ijtimoiy muloqot uchun mo'ljallangan bu makon mehmonlarni kutib olish va qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. Bu yerda iliq va neytral ranglar (to'q sariq, och jigarrang, bej) foydali. Bular qulaylik va yaqinlik hissini uyg'otadi. Oshxona - sariq va qizil ranglar ishtahani rag'batlantiradi, shuning uchun ular oshxonada ko'p ishlatiladi. Biroq haddan ortiq yorqin ranglar kishini charchatishi yoki bezovta qilishi mumkin, shu bois ular neytral fon bilan uyg'unlashtiriladi. Ish joylari va ofislar -ish joylarida samaradorlik, diqqatni jamlash va ruhiy barqarorlik talab etiladi. Bunda quyidagi ranglar tavsiya etiladi:

Moviy-kognitiv faollikni oshiradi, hushyorlikni kuchaytiradi. Yashil-tabiiylik hissini beradi, ko'zni toliqtirmaydi. Kulrang- zamonaviylik va neytrallik hissi beradi, lekin haddan ortiq bo'lsa – demotivatsiya keltirishi mumkin. Aqlli kontrast- ko'k va oq, yashil va bej kabi kombinatsiyalar xonani jonlantiradi. Ta'lim muassasalari va bolalar muassasalari- psixologik jihatdan bolalar atrofdagi ranglarga nihoyatda sezgirliigi sababli extiyotkorona foydalanish tavsiya etiladi . Ularning xayoloti, fikrlash doirasi va kayfiyati ko'p hollarda makondagi ranglarga bog'liq:

Biroq haddan ortiq rang-baranglik bola uchun chalg'ituvchi bo'lishi mumkin. Shu bois, ranglar muvozanatli tanlanishi zarur. Madaniyatlararo farqlar va psixologik yondashuvlar juda muhim hisoblanadi. Ranglarning psixologik ta'siri universal bo'lmasligi mumkin. Ular madaniy kontekstga qarab turlicha talqin qilinadi. Masalan: Oq rang: G'arbda poklik ramzi, Sharqda esa motam ramzi. Qora: G'arbda rasmiylik va jiddiylik, ayrim Osiyo madaniyatlarida baxt va baraka timsoli. Bu omillar xalqaro dizayn loyihalarida, mehmonxonalar va xalqaro ofislar interyerida albatta inobatga olinadi. Ilmiy tadqiqotlar va real tajribalar misolida olganimizda so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interyerdagi ranglar insonning: Qaror qabul qilish tezligi, Stressga chidamliligi, Kreativ fikrlashi va Emotsional barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Masalan, Shveytsariyada o'tkazilgan tajribalarda ko'k rangli xonada ishlagan xodimlarning samaradorligi 18% ga oshgani aniqlangan. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'ylab olib borilayotgan keng ko'lamli qurilish, obodonlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarida nafaqat texnik, balki psixologik va estetik yondashuvlar ham tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Xususan, rang psixologiyasi tamoyillari yangi uy-joy majmualari, davlat idoralari, maktab va bog'chalar, tibbiyot muassasalari hamda jamoat binolari interyer va eksteryer dizaynida bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Yirik

shaharlarda, xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Namangan kabi markazlarda barpo etilayotgan zamonaviy ko'p qavatli uylar interyerida yorqin, ammo muvozanatli ranglar tanlanmoqda. Bu orqali fuqarolarda qulaylik, xavfsizlik, estetik zavq uyg'otish maqsad qilinmoqda. Turar joylarning umumiy koridorlari va kirish zallarida neytral ranglar (kulrang, oq, bej) bilan birgalikda quvnoq rang aksentlar (sariq, yashil, och moviy) ishlatilishi - bu joylarning bezovtalikni kamaytirish va ijobiy kayfiyat berish maqsadini ko'zlaydi. Ta'lim va maktabgacha muassasalarda ya'ni maktab va bog'chalarda interyer dizaynida rangsiz yoki juda xira muhitlar endilikda deyarli qo'llanilmayapti. Aksincha, yorqin, ammo chalg'itmaydigan sokin ranglar (och ko'k, yashil, pastel sariq) orqali bolalarning-diqqat-e'tibori, ijodkorlik qobiliyati, emotsional barqarorligi qo'llab-quvvatlanmoqda. Yangi namunadagi maktabgacha ta'lim muassasalarida turli ranglarda bo'yalgan dars xonalari, yotoqxona va o'yin maydonchalari bolalar psixologiyasiga mos tarzda yaratilmoqda. Bu esa ta'lim sifati bilan bir qatorda, ruhiy salomatlikni ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash muassasalarida

tibbiyot muassasalari interyerida oq rang o'rniga, endilikda tinchlantiruvchi ranglar (och ko'k, och yashil, pastel kulrang) tanlanmoqda. Bu yondashuv-bemorlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stress darajasini kamaytirish, tibbiy xodimlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi qurilayotgan tibbiyot markazlari, poliklinikalar va shifoxonalar dizaynida bu yondashuvlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Jamoat binolari va xizmat ko'rsatish obyektlari aholiga xizmat ko'rsatuvchi binolar-masalan, banklar, davlat xizmat markazlari, kutubxonalar va kutish zallari dizaynida mutanosib, ishonch uyg'otuvchi ranglar (moviy, yashil, bej) tanlanmoqda. Bu holat fuqarolarning- kutish vaqtida bezovtalik darajasini kamaytiradi, ishonch hissini oshiradi, xodimlar bilan muloqotni qulaylashtiradi. Madaniy meros va zamonaviylik uyg'unligi shuningdek, tarixiy me'moriy obidalar atrofida olib borilayotgan obodonlashtirish ishlarida ham ranglar uyg'unligi prinsipiga e'tibor berilmoqda. Masalan, Samarqand va Buxorodagi qadimiy binolar yonidagi jamoat hududlarida zamonaviy infratuzilma qadimiy ranglar palitrasi bilan moslashtirilmoqda. Bu orqali vizual uyg'unlik saqlanib qoladi va tarixiy-estetik muhit buzilmaydi.

Xulosa qilib aytganda interyerda rang psixologiyasi – bu oddiy estetik tanlov emas, balki ong osti darajasida inson kayfiyatini, ishlash qobiliyatini, dam olish sifatini shakllantiruvchi muhim vositadir. To'g'ri tanlangan ranglar orqali makonni inson salomatligiga moslashtirish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash, ijodkorlik va mehnat samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois interyer dizaynida har bir rangni

shunchaki bezak deb emas, balki inson psixologiyasi bilan uyg'un ishlaydigan ruxiy vosita sifatida qabul qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Kaya, N., Epps, H. H. "Relationship between color and emotion: A study of college students." College Student Journal, 38(3), 2004.
2. Nasriddinova, G. R. "Interyer dizaynida rang tanlashda psixologik yondashuv." San'at va Dizayn Jurnal, 2023.
3. Karimov, A. A. "Psixologik muhit va rang uyg'unligi." O'zbekiston Psixologiya Jurnal, 2022.